

## TALABA-YOSHLARNING BILIM, KO‘NIKMA, MALAKALARINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK RITORIKANING O‘RNI

*D. Sabirova  
Tarjimonlik fakulteti,  
Ingliz tili tarjima  
nazariyasi va amaliyoti  
kafedrasida o‘qituvchisi  
O‘zbekiston davlat  
jahon tillari universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola pedagog nutqida o‘qitishda duch keladigan muammolarni ko‘rib chiqadi va ta’limni yaxshilash uchun samarali yechimlarni taklif qiladi. Mavjud adabiyotlar va empirik tadqiqotlarni sintez qilish orqali u pedagogik strategiyalar, o‘quv dasturlarini loyihalash va texnologik integratsiyani o‘rganadi.

### **Annotation:**

*This article examines the challenges faced in translation education and suggests effective solutions to improve translation education. By synthesizing existing literature and empirical research, it examines pedagogical strategies, curriculum design, and technology integration.*

### **Аннотация:**

*В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкивается переводческое образование, и предлагаются эффективные решения для улучшения переводческого образования. Обобщая существующую литературу и эмпирические исследования, он исследует педагогические стратегии, разработку учебных программ и интеграцию технологий.*

### **KIRISH**

Hozirgi texnika va innovatsiyalar davrida har bir pedagog xodim barcha eng so‘nngi texnika va texnologiya yangiliklari, siyosiy islohotlar, ta’limdagi yangiliklar va o‘zgarishlardan boxabar bo‘lmog‘i va bularning barchasidan darsda samarali foydalanmog‘i lozim. Bilimli, yuksak salohiyatli, ilmiy yangiliklardan boxabar va zamon bilan hamnafas pedagog doimo hukumatimiz e’tibor-u e’tirofiga sazovor bo‘ladi, barcha birdek tan oladi va talabalar, o‘quvchilar, shogirdlar hurmat e’tiboriga erishadi va eng asosiysi esa Vatanimiz ravnaqi va mamlakatimiz gullab yashnashi, rivojlanishi uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shgan bo‘ladi. O‘z diyorida qadr topgan va hurmat e’tiborga erishgan pedagog doim olg‘a intiladi va barcha uchun birdek namuna bo‘la oladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning salohiyati ham yuksala boradi. Bilim-salohiyati yuksak jamiyat esa kuchli davlatni barpo etadi va jahon hamjamiyatida munosib o‘ringa ega bo‘ladi, butun dunyo birdek tan oladi.

Pedagogik faoliyatning mohiyati, funksiyalari, shakllari va xususiyatlariga ko‘ra o‘qituvchining kasbiy faoliyatining eng muhim vositasi sifatida tushunish unga quyidagi talablar qo‘yiladi:

a) nutq savodxonligi va uning leksik boyligi;



b) mazmunli tarkib (o‘qituvchining nutqi yetarlicha ma’lumotli, hayot bilan bog‘liq faktik, ilmiy materiallarga boy va shaxsiy tajribasi bilan boyligi);

v) nutqning dolzarbligi (o‘qituvchining auditoriya haqidagi bilimlari, tushunishuning xususiyatlari va nutq faoliyati amalga oshiriladigan holatlar nutq mazmunini tanlash, til vositalari bilan bog‘liqligi);

D) mantiq va mavjudlik (nutqning mavjudligi bu yerda nafaqat o‘qituvchining bayonotlarining aniqligi va shaffofligi intermlari tushuniladi, balki ularni o‘quvchi talabalarning yoshi va individual xususiyatlariga moslashtirish qobiliyati);

e) ekspressivlik, hissiylik va obrazlilik.

Dars jarayonlarini samarali tashkil etishda eng avvalo pedagog yuksak bilimli, bo‘lmog‘i va bor bilimlarini talaba-yoshlarga birdek yetkaza olishi ham zarurdir. Bunda albatta pedagogik muloqot juda kattarol o‘ynaydi. Pedagogik muloqot to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsagina pedagog darsning maqsadiga erisha oladi.

Pedagogik muloqotning quyidagi uslublari mavjud:

1) aloqa-qo‘rqitish (o‘qituvchi tinglovchilarni bostiradi, ularga buyuradi shartlar, "despot", "diktator" rolini o‘ynaydi);

2) aloqa-noz-karashma (o‘z bilimiga ishonmaydigan o‘qituvchi va pedagogik mahorat, go‘yo u bilan "bitim" tuzishga harakat qilmoqda talabalar tomonidan; ularga qo‘yiladigan talablarni kamaytirish evaziga u, masalan, auditoriyadagi eng yaxshi intizom);

3) aniq belgilangan masofa bilan aloqa (o‘qituvchi doimiy ravishda ko‘proq tajribali, bilimdon sifatida bir-birining farqini ta’kidlaydi, tushunish va o‘qitish, unga bo‘ysunishga majbur);

4) do‘stona munosabat (o‘qituvchi rol o‘ynaydi Yoshi jihatidan katta do‘st, ko‘proq bilimdon do‘st, talabaga yordamga kelishni xohlaydi);

5) birgalikda ishtiyoq bilan muloqot qilish (o‘qituvchi va talabalar – hamkasblar, qo‘shma intellektual faoliyat jarayonida birdek ishtirok etadilar).

Pedagogik ritorik, interaktiv metodologiya borasida ilmiy tadqiq olib borgan olimlar o‘z maqolalarida shunday xuosaga kelganlar: “Biz pedagogik o‘zaro ta’sirlar talabalarning o‘rganish istagini, shuningdek, ularning haqiqiy o‘rganish istagini qanday qo‘llab-quvvatlashi bilan bog‘liq holda qanday fikrlash va harakat qilish haqida pedagogik ritorik interaktiv metodologiyani taklif qilamiz. Bu kelajakdagi ta’lim tadqiqotlari uchun muhim asosiy masala va oliy ta’limdagi barcha fanlar bo‘yicha bo‘ljak akademiklar uchun asosiy kompetentsiyadir” [4]. Ha, darhaqiqat dars jarayonida interaktivlik, o‘qituvchi va talabalarning faolligi bu ta’lim sohasida katta-katta muvaffaqiyatlarga yo‘l ochadi.

Pedagogik muloqotni yaxshi yo‘lga qo‘yish uchun o‘qituvchi-ustoz xarizmaga ega bo‘lishi zarur. Pedagog talabalarga xohlasa xohlamasa estetik ta’sir ham o‘tkazadi. Xarizmatik o‘qituvchi ishonish va ishonchni beradi. Xarizmani inson o‘ziga xos borligi harakatlari yoki so‘zlari bilan o‘ziga jalb qilish uchun ega bo‘lgan tabiiy fazilat sifatida qaralishi kerak. Kiyinish madaniyatida har bir pedagog xodim soddalikka intilishi, juda yorqin va ko‘zga tashlanadigan ranglardan qochish kerak bo‘ladi. O‘ziga jalb qiladigan kiyimlar kiyimasligi, sochlari chiroyli turmaklangan,

toza va orasta bo‘lib yurishi talab etiladi. Shu bilan birga o‘qituvchi insoniy sifatlarga ega bo‘lishi, xolislikni o‘ziga shior qilmog‘i va doimo xalollikka intilmog‘i joiz.

Nutq ta‘hiri nuqtai nazaridan o‘qitish maqsadlari:

- 1) o‘quv materialini tushuntirish;
- 2) talabalarga muayyan harakatlarni, shu jumladan vazifalarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish;
- 3) talabaniing javobini tezkor, to‘g‘rilash;
- 4) talabaniing javobini baholash;
- 5) o‘quvchini biror narsaga ishontirish;
- 6) biror narsa uchun talabadan kechirim so‘rash yoki o‘zining yoki birovning harakatini oqlash.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib pedagogik nutqning quyidagi turlarga bo‘linadi; tushuntirish nutqi; ibratli nutq; nutqni nazorat qilish; baholash nutqi; ishonarli nutq; apologik nutq.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytish zarurki, haqiqiy pedagog nafaqat yuksak bilim egasi balki, yaxshi notiq, yetakchi, boshqaruvchi, ruhshunos, tashkilotchi, uslubiyatchi, kommunikativlik qobiliyatlariga ega serqirra ijodkor bo‘lmog‘i lozim. Pedagogik muloqotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish-o‘qituvchidan tinimsiz mehnat va izlanish talab etadi.

Pedagogik muloqot aniq maqsadga yo‘naltirilsagina, dars samarali va ijobiy ta‘sirga ega bo‘ladi. Talabalarda darsga, fanga nisbatan qiziqish, ishtiyoq va muhabbat uyg‘onadi. O‘qituvchi samimiy va ishonchli, ilmiy faktlarga asoslangan muloqot o‘rnatsagina talabalarni o‘zini ortidan ergashtira oladi. Auditoriyada ham ustozga nisbatan hurmat va ishonch uyg‘onadi. Yuksak bilimli yosh avlodni shakllantirishda bu juda muhim omil hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Arastu.Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. T.:”Yangi asr avlodi”, 2011, 352 b.
2. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi .- T.: “ Iqtisod-moliya”, 2011, 420 b
- 3.<https://www.tandfonline.com/doi/epdf/10.1080/13562517.2020.1792876?needAccess=true>
- 4.<https://www.tandfonline.com/doi/epdf/10.1080/13562517.2020.1792876?needAccess=true>